

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

KREDIT-IQTISOD FAKULTETI

BANK XARAJATLARI AUDITI

KURS ISHI

Ilmiy rahbar: k.o'q. Absalomov A.

Bajardi: Azizov S. KBI-90

TOSHKENT-2015

Mundarija:

Kirish

- 1. Tijorat banklari daromad va xarajatlarning shakllanishi.***
- 2. Tijorat banklari xarajatlari auditini tashkil qilishning nazariy nazariy asoslari.***
- 3. Bank xarajatlarini audit qilishning joriy holati tahlili.***

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

KIRISH.

Insoniyat turmush tarzini banklar xizmatlashtirish tasavvuri etib bo'lmaydi. Chunki banklar xo'jalik sub'ektlarini kredit mablag'lari bilan ta'minlab, ijtimoiy sarmoyani qayta taqsimlash jarayonida vositachi sifatida qatnashadi va jamiyat miqyosida umumiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Bizga ma'lumki, banklar, asosan, jamiyatdagi bo'sh pul mablag'larini jamlaydilar va bu pullarni iqtisodiyotning eng samarali sohalariga joylashtiradilar. Shunday ekan, hozirgi sharoitda banklar mamlakatimiz iqtisodiyotining qon tomirlari- Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda "lokomotivi" hisoblanadi.

Bu borada, muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov o'z nutqida « Bank tizimidagi islohotlar iqtisodiyotimizning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashda eng muhim omil bo'ldi. Buning natijasida tijorat banklarining jami kapitali 25 foizga oshdi. Bank tizimining mustahkamlanishi 2014-yilda Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini 12 foizdan 10 foizga, tijorat banklarining kreditlar bo'yicha foiz stavkasini ham shunga mos ravishda kamaytirish uchun zarur imkoniyatlar tug'dirdi. Banklar tomonidan faqat ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash dasturlarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan kreditlar hajmi 2013-yilga nisbatan 1,2 barobar, aylanma mablag'larni to'ldirish uchun ajratilgan kreditlar esa 1,3-martadan ziyod oshishi», ekanligini alohida ta'kidlaydi.¹

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank tizimi faoliyatini nazorat qilishning asosiy elementlaridan biri audit hisoblanadi. Hozirgi vaqtda audit xulosalaridan foydalanuvchilarning asosiy qismini bilvosita foydalanuvchilar ekanligini hisobga olsak, uning ahamiyati nafaqat nazoratda, balki investorlarni jalb qilishning ham

1 «2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir», O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2014 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi, 2014 yil 17 yanvar

bir usuli ekanligi ko`zga tashlanadi. Kurs ishining yana bir dolzarb jihatida bu tijorat banklari faoliyatini shaffofligi va ularning daromadlari va xarajatlarning banklar faoliyatidagi rolini ochib berishdadir.

Prezidentimizning 2010-yil 10-noyabrdagi PQ 1438 sonli “2011-2015 yillarda bank-moliya tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko`rsatkichlariga erishish bo`yicha chora-tadbirlari to`g`risida”gi qaroriga ko`ra, 2015 yilga qadar mamlakatimiz tijorat banklariga jahonning nufuzli reyting kompaniyalari yuqori reyting ko`rsatkichlarini olish vazifasi qo`yilgan.


Bu qarorning 1-ilovasi 3-bo`limiga quyidagi bandlar kiritilgan:

1. Tijorat banklari umumiy kapitalini qo`shimcha aksiyalarni chiqarish yo`li bilan 2011-2015 yillarda 2.1 martaga oshirilishini ta`minlash.
2. Tijorat banklarining ichki audit xizmatlarini quyidagilarga asosan yanada kuchaytirish:
 - ✓ Tijorat banklari filiallari faoliyatining monitoringi natijalarini bank Kengashi yig`ilishlarida muntazam ravishda ko`rib chiqish orqali monitoring tizimini takomillashtirish;
 - ✓ Ichki audit xizmati ishining samaradorligini bankning aktivlari, kredit va investitsiya portfeli sifati hamda bank faoliyatiga tegishli boshqa ko`rsatkichlardan kelib chiqib baholash tizimini joriy qilish.

1. Tijorat banklari daromad va xarajatlarining shakllanishi.

Bank xizmat ko'rsatishi va bank mahsulotlarini sotish evaziga oladigan tushumlari miqdori bankning daromadlarini anglatadi. Bankning daomadlari asosan aktiv operatsiyalar natijasida yuzaga keladi. Mamlakatimiz amaliyotida tijorat banklari daromadlarini ikki turga bo'linadi:

- Foizli daromadlar
- Foizsiz daromadlar



1-chizma. **Tijorat banklari daromadlari tasnifi**²

Foizli daromadlar - oldindan shartnoma asosida belgilangan foiz stavka bo'yicha hisoblanadi. Daromadlar har bir faoliyat turidan turlicha kelishi mumkin. Aktiv operatsiyalardan keladigan daromad umumiy daromadlarning asosiy salmog'ini tashkil etadi. Kredit operatsiyalaridan olinadigan daromadlar bank faoliyatida eng muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Foizli daromadlarning 70 foizga yaqin qismi aynan kredit operatsiyalaridan keladigan foizli daromadlar hisoblanadi. "Tijorat banklari hisobvaraqlar rejasi"ga ko'ra tijorat banklari

- Markaziy bankka berilgan kreditlar
- Boshqa banklarga berilgan kreditlar
- Hukumatga berilgan kreditlar
- Budjet tashkilotlariga berilgan kreditlar
- Jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar
- Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan kreditlar

² Manba: Surkova M.A, Leshina E.A, Bagdanova N.A, Ryabova M.A
"Аудит банков" o'quv qo'llanma . Ulyanovsk 2009-yil.

- Davlat korxonalariga berilgan kreditlar
- Qo`shma korxonalarga berilgan kreditlar
- Xususiy korxonalarga berilgan kreditlar
- Bank bo`lmagan moliyaviy muassasalarga berilgan kreditlar

bo`yicha foizli daromadlar olishi mumkin. Bu daromadlarni keltiruvchi kredit turlari 11900-15599 hisobvaraqlarda hisobga olinib boriladi. Foizli daromadlar hisobvaraqlar rejasining 40200-45121 hisobvaraqlarida aks ettiriladi.

Foizli daromadlar klassifikatsiyasi

➤ **O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankidagi hisobvaraqlar bo`yicha foizli daromadlar:**

- ✓ Vakillik hisobvarag`i bo`yicha
- ✓ Depozitlar bo`yicha

➤ **Boshqa banklardagi hisobvaraqlar bo`yicha foizli daromadlar:**

- ✓ Vakillik hisobvaraqlari(VOSTRO)
- ✓ Vakillik hisobvaraqlari(NOSTRO)
- ✓ Depozitlar bo`yicha

➤ **Oldi-sotdi qimmatli qog`ozlari bo`yicha foizli daromadlar:**

- ✓ Davlat xazina veksellari bo`yicha
- ✓ Davlat obligatsiyalari bo`yicha
- ✓ Markaziy bank qimmatli qog`ozlari bo`yicha
- ✓ Korxonalar obligatsiyalari bo`yicha
- ✓ Yevroobligatsiyalar bo`yicha
- ✓ Xususiy korxonalar qimmatli qog`ozlari bo`yicha
- ✓ Boshqa qimmatli qog`ozlar bo`yicha

➤ **Kredit operatsiyalari bo`yicha foizli daromadlar:**

- ✓ Markaziy bankka berilgan kreditlar bo`yicha
- ✓ Boshqa banklarga berilgan kreditlar bo`yicha
- ✓ Hukumatga berilgan kreditlar bo`yicha
- ✓ Budjet tashkilotlariga berilgan kreditlar bo`yicha
- ✓ Jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar bo`yicha

- ✓ Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan kreditlar bo'yicha
- ✓ Nodavlat notijrat tashkilotlarga berilgan kreditlar bo'yicha
- ✓ Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarga berilgan kreditlar bo'yicha
- ✓ Bank bo'lmagan moliyaviy tashkilotlarga berilgan kreditlar bo'yicha
- ✓ Xususiy korxonalarga berilgan kreditlar bo'yicha

➤ **REPO operatsiyalari bo'yicha**

➤ **Lizing bo'yicha**

Hozirgi kunda Respublikamiz tijorat banklarining asosiy daromadlari aynan kredit operatsiyalari orqali shakllanadi. Tijorat banklari o'zlarining kredit siyosatiga ega. Kredit siyosati orqali banklar o'zlarining kreditlash operatsiyalarini aynan qanday olib borishini ko'rsatadilar. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan foizli daromad turlari va ular bo'yicha olinadigan foizlar yil oxiriga kelib "Foyda va zararlar to'g'risida" gi hisobotga ko'chiriladi. Mamlakatimiz tijorat banklarida xorijiy bank amaliyotidan farqli ravishda foizli daromadlarning jami daromadlar tarkibidagi ulushi yuqori emas. Odatda bank daromadlarining 70% dan yuqoriroq qismini foizli daromadlar tashkil qilishi lozim. Bu tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan ko'rsatkich hisoblanadi. Bu ko'rsatkichni Jahon banki ekspertlari ta'kidlaydilar.

Foizsiz daromadlar- bankning barcha xizmat turlari yoki mahsulotlari uchun foiz ko'rinishida emas, balki qat'iy belgilangan miqdorda olinadigan jami tushumi bankning foizsiz daromadi hisoblanadi. Jahon banki ekspertlari bankning foizsiz daromadlari ulushi foizli daromadlar ulushiga teng yoki undan katta bo'lishini oqlamaydilar. Foizsiz daromadlar hisobvaraqlar rejasining 45200-45994 hisobvaraqlarida aks ettiriladi va hisobda yuritiladi.

Foizsiz daromadlar klassifikatsiyasi:

➤ **Vositachilik operatsiyalari bo'yicha foizsiz daromadlar**

- ✓ Markaziy Bankka ko'rsatilgan xizmatlar va vositachilik bo'yicha
- ✓ Boshqa banklarga ko'rsatilgan xizmatlar va vositachilik bo'yicha
- ✓ Qimmatli qog'oalar bilan bog'liq vositachilik operatsiyalar bo'yicha


- ✓ Bankning qimmatbaho metallar, toshlar, va tangalar bilan amalga oshirgan operatsiyalari bo`yicha
- ✓ Faktoring bo`yicha
- ✓ Trast operatsiyalari bo`yicha
- ✓ Kreditlar bo`yicha vositachilik daromadlari
- ✓ Menejment xizmati bo`yicha
- ✓ Mahalliy to`lovlar bo`yicha vositachilik haqlari
- ✓ Kafolatlar va kafilliklar bo`yicha
- ✓ Boshqa vositachilik operatsiyalari bo`yicha
- **Xorijiy valyutalardagi foyda**
 - ✓ “SPOT” bitimi bo`yicha
 - ✓ Muddatli operatsiyalar bo`yicha
 - ✓ Valyuta transaksiyalari bo`yicha
- **Tijorat operatsiyalaridan foyda**
 - ✓ Qimmatli qog`ozlar bo`yicha
 - ✓ Qimmatbaho toshlar, metallar va tangalar bo`yicha
 - ✓ Sotishga olingan qimmatli qog`ozlar haqiqiy qiymatining o`zgarishi hisobiga olingan foyda
- **Qaram xo`jalik jamiyatlariga, qo`shma korxonalarga va sho`ba xo`jalik jamiyatlariga qilingan investitsiyalar bo`yicha**
- **Investitsiyalardan olingan foyda va dividendlar**
- **Boshqa foizsiz daromadlar**
 - ✓ Bankning asosiy vositalaridan ijarasidan
 - ✓ Boshqa ko`chmas mulklarga qilingan investitsiyalar bo`yicha
 - ✓ Hisobdan chiqarilgan mablag`larning qaytarilishi
 - ✓ Bank asosiy vositalari va ko`chmas mulklarini sotish bo`yicha
 - ✓ Boshqa foizsiz daromadlar

Yuqoridagilardan ko`rishimiz mumkinki, bankning foizsiz daromadlari asosan vositachilik operatsiyalari natijasida to`planadi. Bu borada mijozlar hisobvaraqlariga xizmat ko`rsatish, hisobvaraqlar ochish yoki yopishdan keladigan daromadlari nisbatan salmoqli o`rin egallaydi. So`nggi paytlarda mamlakatimiz tijorat banklarida aholining kommunal to`lovlari bilan bog`liq vositachilik operatsiyalaridan tushayotgan daromadlar miqdori oshib bormoqda.

Tijorat banklarining xarajatlari va ularning tarkibi

Bankning daromadliligi, birinchi navbatda, xarajatlarni kamaytirishga bogʻliq. Bank ishi texnologiyasidagi muvaffaqiyatlar joriy xarajatlarni kamaytirishga imkon beradi.

Odatda, banklar oʻz zimmasiga operatsiya xarajatlari, ustama foizlarga ketgan mablagʻlar, shuningdek, kredit riski bilan bogʻliq boʻlgan yoʻqotishlarni qoplash uchun ajratmalarni oladilar. Bank xarajatlari tarkibida eng asosiy salmoqni ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlar tashkil etadi. Soliq va yigʻimlar xarajatlari ham salmoqli ulushga ega.



2-chizma. Bank xarajatlari tarkibi³

Foizli xarajatlar

Foizli xarajatlar-barcha majburiyatlar boʻyicha toʻplangan foiz summasi demakdir. Bizga maʼlumki tijorat banklari kredit resurslari tashkil etishda talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar hamda muddatli depozitlar qabul qiladi. Ushbu depozitlarga banklar maʼlum belgilangan foizlarda pul toʻlaydilar. Tijorat banklari bank qarz majburiyatlari boʻyicha foizlar toʻlaydilar, shu jumladan, qimmatli qogʻozlarining sotuv narxi bilan nominal qiymati orasidagi salbiy tafovut boʻlganida, baʼzi bir keltirilgan, lekin toʻlanmagan foizlarni toʻlashda banklarda foizli xarajatlar yuzaga keladi.

Banklar foizli xarajatlarining yana biri kredit va unga bogʻliq operatsiyalardir. Banklar, eng avvalo, Markaziy bankdan, boshqa tijorat

³ Manba: Surkova M.A, Leshina E.A, Bagdanova N.A, RyabovaM.A “Аудит банков” oʻquv qoʻllanma . Ulyanovsk 2009-yil.

banklaridan, byudjetdan tashqari fondlardan, bank bo'lmagan moliyaviy muassasalardan kreditlar olishi mumkin. Olingan kreditlar uchun to'lanadigan qarz- foizli xarajatlarga kiradi. Bank avvalgi yillar (hisobot yiliga nisbatan) hisobiga to'lagan foizlar va vositachilik yig'implari, hamda o'tgan yillarda bank mijozlardan ortiqcha undirgan foizlar, hamda vositachilik yig'implarini qaytarishi bilan foizli xarajatlar qiladi. Foizli xarajatlar hisobvaraqlar rejasining 50100-54904 hisobvaraqlarida hisobga olinadi.

Foizli xarajatlar klassifikatsiyasi:

Bu xarajat turi asosan 5 katta qismga ajratiladi. Ular foiz ko'rinishida to'lanadi. Bu xarajatlarning asosiy qismini depozit operatsiyalari bo'yicha xarajatlar tashkil qiladi.

➤ Depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar:

- ✓ Talab qilib olinguncha depozitlar bo'yicha
- ✓ Jamg'arma depozitlar bo'yicha
- ✓ Muddatli depozitlar bo'yicha

➤ O'zbekiston Markaziy bankining hisobvaraqlari bo'yicha foizli xarajatlar

- ✓ Boshqa banklarning hisobvaraqlari bo'yicha foizli xarajatlar
- ✓ Bankning tugallanmagan akseptlari bo'yicha foizli xarajatlari
- ✓ Kreditlar bo'yicha foizli xarajatlar
- ✓ Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli xarajatlar
- ✓ REPO bitimlari bo'yicha foizli xarajatlar
- ✓ Boshqa foizli xarajatlar

Foizsiz xarajatlar klassifikatsiyasi:

Bankning o'z majburiyatlarini bajarishi uchun foizli ko'rinishda emas, balki belgilangan summada qilinadigan xarajatlari foizsiz xarajatlar hisoblanadi. Bu xarajatlar hisobvaraqlar rejasining 55100-55995 hisobvaraqlarida hisobga olinadi va hisobda aks ettiriladi.

- Markaziy Bankkka to'lanadigan foizsiz xarajatlar
- Boshqa banklarga to'lanadigan foizsiz xarajatlar

➤ Qimmatli qogʻozlar bilan bogʻliq operatsiyalar boʻyicha foizsiz xarajatlar

- Vositachilik xarajatlari
- Xorijiy valyutalardan koʻrilgan zararlar
- Tijorat operatsiyalaridan koʻrilgan zararlar
- Investitsiyalardan koʻrilgan xarajatlar
- Boshqa foizsiz xarajatlar:
 - ✓ Asosiy vositalarni sotish va ijaraga berishdan
 - ✓ Boshqa xususiy mulklarni sotishdan
 - ✓ Boshqa foizsiz xarajatlar

Operatsion xarajatlar:

Bank faoliyat olib borishi uchun zarur boʻlgan foizli va foizsiz xarajatlar tarkibiga kiritilmaydigan xarajatlar operatsion xarajatlar hisoblanadi. Ular hisobvaraqlar rejasining 56100-56902 hisobvaraqlarida aks ettiriladi. Bu xarajatlar asosan quyidagi yirik guruhlariga boʻlinadi:

- Ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlar
- Ijara va taʼminot xarajatlari
- Xizmat safari va transport xarajatlari
- Maʼmuriy xarajatlar
- Reprezentatsiya va xayriya
- Eskirish xarajatlari
- Sugʻurta , soliq va boshqa xarajatlar
- Koʻrilishi mumkin boʻlgan zararlarni baholash
- Foyda soligʻi xarajatlari

Banklarning operatsion xarajatlarning tarkibi bankning tashkiliy shaklidan kelib chiqib farqlanishi mumkin. Odatda xususiy banklarda operatsion xarajatlar salmogʻi yuqori boʻladi, sababi xususiy banklar ish haqi fondini yuqoriroq qilishga oʻz eʼtiborini qaratadilar. Banklarning resurs yigʻish bilan bogʻliq operatsiyalarining asosiy qismini depozit operatsiyalari tashkil qiladi. Foizli

xarajatlar tarkibida ham depozitlarga to'lanadigan foizli xarajatlar yuqori salmoqqa ega. Tijorat banklari tomonidan to'lanadigan soliqlarga quyidagilar kiradi:

- foyda solig'i
 - ekologiya solig'i;
 - mol-mulk solig'i;
 - yer solig'i;
 - obodonchilik ishlari uchun yig'im;
 - suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
 - ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
 - yer osti boyliklaridan foydalanish solig'i;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq joriy etiladigan boshqa soliqlar, yig'imlar va majburiy to'lovlar.

Auditorlik tekshiruvlari moliyaviy hisobotlar bilan bog'liq ekan, demak banklarning moliyaviy hisobotlariga to'xtalib o'tishimiz zarur. Tijorat banklari besh turdagi moliyaviy hisobotlarni tuzadilar:


- ✓ Buxgalteriya balansi
- ✓ Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot
- ✓ Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot
- ✓ O'z mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot
- ✓ Tushuntirishlar va izohlar

Bu beshta hisobot turini tuzish bir yilda bir marta amalga oshiriladi.

2. Tijorat banklari xarajatlari auditini tashkil qilishning nazariy nazariy asoslari.

Bizga ma'lumki "audit" so'zi eshitmoq degan ma'noni anglatadi. Audit munosabatlari mamlakatimizda mulkiy munosabatlarda o'zgarish ro'y bergandan boshlab yuzaga kelgan. Mamlakatimizda audit atamasi 1988 yillarga kelib kirib keldi. Auditning asosiy zaruriyati bu aksionerlar tomonidan boshqaruvning to'g'ri

ishlayotganini tekshirishdir. Banklar boshqaruvida ichki audit xizmatining o`rnini quyidagi chizma yaqqol tasvirlaydi(1-chizma).



3-chizma. Bank boshqaruvi tarkibi.⁴

Har bir tijorat bankida bank Kengashigagina bo`ysunuvchi alohida bank ichki audit xizmati joriy qilinadi. Bankning xizmat ko`rsatish ko`lami kengligiga qarab, bu tuzilma, ya`ni ichki audit qo`mita shaklida yoki maxsus xizmat shaklida joriy qilinishi mumkin. Audit xulosalari natijasiga bog`liq holda mijozlar yoki bo`lajak investorlar bankni tanlashi mumkin. Banklarni tashqi audit qilish, banklarning moliyaviy hisobotlarini tekshirish, birinchi navbatda bank aksiyonerlarini qiziqtiradi. Banklarda o`tkaziladigan tashqi audit tekshiruvlari va ichki audit tekshiruvlari o`rtasida bir qancha farqlar mavjud.

Dastavval o`tkazuvchilarda, tashqi auditni bankka hech qanday aloqasi bo`lmagan mustaqil auditorlik kompaniyalari tomonidan o`tkaziladi. Tashqi audit tekshiruvi natijasida auditorlik kompaniyasi 4 turdagi auditorlik xulosalaridan birini beradi. Bular:

- ✓ Ijobiy auditorlik xulosasi.
- ✓ Izohli-ijobiy auditorlik xulosasi.
- ✓ Salbiy auditorlik xulosasi.
- ✓ Xulosa berishdan bosh tortish.

⁴ Manba: YO.Abdullayev, T. Qoraliyev, Sh.Toshurodov, S.Abdullayeva "Bank ishi" O`quv qo`llanma - T.: "Iqtisod-moliya" 2010-yil.

Ijobiy auditorlik xulosasi bankning moliyaviy hisobotlari xalqaro standartlarga to'liq javob bergan hollarda beriladi.

Izohli-ijobiy auditorlik xulosasi esa faqatgina milliy standartlarni ayrim elementlarinigina namoyon etuvchi, qolgan qismlari esa xalqaro standartlar talabi darajasidagi moliyaviy hisobotlarga beriladi.

Salbiy auditorlik xulosasi moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlarga mos tushmagan, ulardagi satrlarni hisoblanishida xatoliklar uchraydigan moliyaviy hisobotlarga nisbatan beriladi.

Xulosa berishdan bosh tortish hollari bank tomonidan auditorga taz'yiq o'tkazilgan hollarda, auditorga tegishli hujjatlar taqdim etilmagan hollarda, auditorlik kompaniyasi va bank o'rtasida shartnoma shartlari buzilgan hollarda amalga oshiriladi.

Ichki audit bank kengashi tomonidan tashkil qilinadi va bosh auditor tayinlanadi. Shundan keyin bosh auditor tomonidan audit qo'mitasining qolgan a'zolari tayinlanadi. Eng muhimi ichki audit bu bankning o'zida tashkil qilinishidadir. Audit xizmati xodimlari bevosita bank kengashigagina bo'ysunadi. 2011 yilga qadar ichki audit xizmati xodimlari yiliga bir marta hisobot bergan bo'lsalar, endi Prezidentimizning "2011- 2015 yillarda Respublika bank-moliya tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishish bo'yicha chora-tadbirlari to'g'risida" gi qaroriga ko'ra 2011 yildan boshlab ichki audit xizmati xodimlari yilning har choragida bank kengashiga hisobot topshiradigan bo'ldi.

Tashqi audit tekshiruvlarining ob'ekti bo'lib yillik moliyaviy hisobotlar hisoblansa, ichki audit tekshiruvlarning ob'ekti bo'lib balans moddalarining har biri hisoblanadi.

Tashqi auditdan har bir bank bir yilda bir marta o'tsa, ichki auditdan esa har bir bank filiali yilda bir marta o'tishi shart hisoblanadi. Audit xizmati xodimlari kamida 3 yil bankning buhgalteriya hisobi va hisoboti, pul muomalasi, kredit, valyuta, deposit bo'limlarida ishlagan bo'lishi lozim.

Tijorat banklarida o`tkaziladigan audit tekshiruvlari sifati va ta`irchanligini oshirish, tashqi audit faoliyatini takomillashtirish, aholi va sarmoyadorlarning bank tizimiga bo`lgan ishonchini yanada oshirish maqsadida 1996-yil 24-iyulda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bank audit tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi farmoni qabul qilindi. Aytish mumkinki, mazkur farmon ijrosi respublikada bank auditini shakllantirish va mustahkamlashning amaliy bosqichini belgilab berdi.

Bu farmonga asosan bank tizimida buxgalteriya hisobining xalqaro andozalarini joriy qilish jarayoni yanada takomillashtirildi va jahonning nufuzli auditorlik kompaniyalaridan

- “Arthur Andersen”
- “Deloitte and Touche”
- “KPMJ”
- “Ernst and Young”
- “Pricewaterhouse Koopers”

kabilar yetakchi tijorat banklari faoliyatini audit qilishga taklif qilindi. Ko`plab omillarni hisobga olib mamlakatimizda audit faoliyatini huquqiy asoslari yaratildi. Me`yoriy hujjatlar ishlab chiqildi va doimiy takomillashtirib borilmoqda.

Yuqoridagi auditorlik kompaniyalari audit qilishi natijasida quyidagi kamchiliklar topildi:

- Hisobvaraqlar rejasini qaytadan ishlab chiqish kerak edi. Sababi, 1996 yilgacha bo`lgan balans 24 ta qismdan iborat edi. Unda har bir soha uchun balans hisobvaraqlari mavjud edi. Balansni xalqaro standartlarga o`tkazish lozim edi. Bu kamchilikning oldini olish maqsadida Jahon bankidan olingan 21.5 mln AQSH dollari evaziga yangi hisobvaraqlar rejasi ishlab chiqildi. Markaziy bank uchun 1996-yil 13-noyabrida Vazirlar Mahkamasining 289-sonli qarori bilan, Tijorat banklari uchun esa 290-sonli Vazirlar Mahkamasining qarori bilan yangi hisobvaraqlar

rejasi ishlab chiqildi. 1997-yil 1-apreldan barcha banklar buxgalteriya hisobi yangi hisobvaraqlar rejasiga o`tdilar.

- Tijorat banklari buxgalteriya hisobida “kassa usuli”dan voz kechib, “hisoblash usuli”ga o`tilishi ta`kidlandi. Bu muammoni yechimi sifatida “hisoblash” tamoyiliga o`tili, ya`ni qilingan xarajatlar operatsiya bajarilganda hisobda aks ettiriladigan bo`ldi, pul kelib tushganda emas.
- Mijozlar tarkibi bo`yicha kamchiliklar topildi, ya`ni davlat korxonalariga davlat banki xizmat ko`rsatar edi. Garchi ular zarar bilan ishlasa ham. Bozor iqtisodiyoti sharoitida esa mulk shaklidan qat`iy nazar barcha korxonalar bank oldida va bank barcha korxonalar oldida bir xil majburiyatga ega edi.
- Auditorlik kompaniyalari topgan xatolaridan yana biri, 1996 yilga qadar taqsimlanmagan foydaning har kvartalda fondlarga ajratilar edi. Taqsimlanmagan foydaning kamligi kapital yetarliligiga salbiy ta`sir etadi. Sabab ,

$$K=C/A$$

Ya`ni, kapital yetarliligi koeffitsiyenti bankning regulyativ kapitalini riskka tortilgan aktivlarga nisbati orqali aniqlanadi.

Auditorlik faoliyatining o`ziga xos jihatlari mavjud. Bu jihatlari audit tamoyillari, uni o`tkazish bosqichlarida yaqqol ko`zga tashlanadi. “Auditorlik faoliyati to`g`risida”gi qonunning 1-moddasida aytiladiki, “Banklarni auditdan o`tkazishning o`ziga xos jihatlari O`zbekiston Respublikasining Markaziy Banki tomonidan belgilanadi ”⁵

Auditorlik tekshiruvi deganda, “Moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborot to`g`riligi va qonun hujjatlariga mosligini aniqlash maqsadida xo`jalik yurituvchi sub`ektning moliyaviy hisobotini hamda u bilan bog`liq moliyaviy

⁵ “Auditorlik faoliyati to`g`risida”gi qonun. 1-modda. 26.05.2000 yil.

axborotni auditorlik tashkiloti tomonidan tekshirish”⁶ tushuniladi. Tijorat banklari har yili majburiy audit tekshiruvidan o`tishlari shart.

O`zbekiston Respublikasining Markaziy Bankining 2004-yil 13-martdagi 571(6/12) sonli qarori bilan tasdiqlangan “Tijorat banklarining ichki auditiga Markaziy Bank tomonidan qo`yiladigan talablar to`g`risida” gi Nizomga ko`ra, “Ichki audit- bank xodimlarining o`z vazifalarini samarali bajarishlarida yordam berish maqsadida bank faoliyatini tekshirish va baholash uchun bank ichida doimiy asosda tuzilgan mustaqil ekspertiza”.

Ichki auditning asosiy maqsadi bo`lib, ichki audit xizmati tomonidan bank raxbariyatiga bank faoliyatining nazorati va natijalari bo`yicha ob`ektiv tahlil, baho, tavsiyalar va ma`lumotlar taqdim etish orqali bank Kengashi va Boshqaruviga bank faoliyati maqsadiga erishishda ko`maklashish hisoblanadi. Bank Kengashi tegishli ichki nazorat tizimini tashkil etish va qo`llab- quvvatlash maqsadida Auditorlik qo`mitasini tuzadi va bu qo`mita tarkibiga faqatgina Bank Kengashi a`zolari kiritiladi. Bu qo`mita tarkibiga Bank Kengashining kamida 3 ta a`zosi kiritilishi lozim. Auditorlik qo`mitasi tarkibiga kiritilgan Kengash a`zolari boshqa bank faoliyatiga javobgar qo`mitalar tarkibiga kiritilmaydi. Qo`mita a`zolari oily ma`lumotga va yetarli ish tajribasiga ega bo`lishlari lozim. Undan tashqari auditorlik qo`mitasining kamida bitta a`zosi moliyaviy hisobotlarni tuzish bo`yicha malakaga ega bo`lishi hamda buxgalteriya hisobi va audit sohasi bo`yicha mutaxasis bo`lishi lozim.

Respublikamizda 2000-yil 26-mayda “Auditorlik foaliyati to`g`risida” gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Ushbu qonunda auditning mustaqil moliyaviy nazoratchi sifatidagi huquqiy asoslari belgilab berildi.

Ushbu qonunda audit konsaltingni ham o`z ichiga olishi belgilab qo`yilgan. Konsalting xizmati moliyaviy-xo`jalik faoliyatini tahlil qilish, tekshirish hamda ularni yaxshilash bo`yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish, soliqlarni hisoblash, buxgalteriya hisobi, ichki moliyaviy nazorat, tashqi aloqalar, chet el valutasini bilan bog`liq jarayonlarni amalga oshirish, xususiylashtirish va boshqa xizmatlar

⁶ “Auditorlik faoliyati to`g`risida” gi qonun. 9-modda. 26.05.2000 yil.

berishni o'z ichiga oladi. Shu bilan bir qatorda, Qonunda moliyaviy hisobotlar tarkibiga balans, foyda va zararlar to'grisidagi hisobot bilan birgalikda, uning qay darajada ishonchliligi to'g'risidagi auditorlik xulosasi ham kiritilishi qayd etilgan.

Aksiyalari fond birjalarida harakatlanib turuvchi xo'jalik subyektlari, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar aksiya, obligatsiya yoki birjalarning boshqa qimmatli qog'ozlari bilan ish boruvchi investitsiya va moliya kompaniyalari hamda chet el investitsiyalariga ega bo'lgan korxonalarning moliyaviy hisobotlari matbuotda e'lon qilinishi shart qilib qo'yildi.

Xo'jalik subyektlari yilda kamida bir marotaba auditorlik tekshirishlaridan o'tishlari lozim. Bundan tashqari, ixtiyoriy ravishda bir necha marotaba auditorlik firmalariga tekshiruv o'tkazish va maslahatlar olish uchun murojaat qilishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ishlab chiqilgan "O'zbekiston Respublikasida bank auditi to'g'risida" Nizom, "Tijorat banklarida ichki nazoratni tashkil qilish uchun tavsiyalar", "Tijorat banklari ichki auditiga qo'yiladigan talablar" bank auditining huquqiy asoslarini yanada mustahkamladi, ko'pgina masalalarga aniqlik kiritdi. "Bank auditi to'g'risida" gi Nizomda tashqi auditni tashkil etishning huquqiy asoslari ham o'z ifodasini topgan. Bu hujjatda tijorat banklarini tekshirishni auditorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaga va Markaziy bank sertifikatiga ega bo'lgan auditorlik firmalari yoki auditorlar amalga oshirishlari belgilab qo'yilgan.

"Tijorat banklarining ichki auditiga qo'yilgan talablar" deb nomlangan me'yoriy hujjatda quyidagilar aks etgan:

- ✓ Ichki audit xizmati tijorat bankining barcha bo'limlarini va bankning bosh ofisini ham tekshiradi;
- ✓ Tijorat banklari o'zlarining "Ichki audit to'grisida" gi Nizomiga va "Ichki auditni o'tkazish tartibi va bajariladigan ishlar tartiblari" ga ega bo'lishlari lozim.

Shuningdek, bu hujjatda ichki audit xodimlarining javobgarliklari, huquqlari, ularga qo'yiladigan talablar ham yoritilgan. Auditorlik hisobotida

auditning maqsadi va obyekti, tekshiruvlar hajmi, aniqlangan muammo va kamchiliklar hamda har bir muammoni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar aks etishi kerak. Hisobot Bank kengashi yoki bank Auditorlik qo'mitasiga taqdim qilinadi. Bank Kengashi auditorlarning avsiyalarini joriy qilish bo'yicha siyosatni ishlab chiqadi.

Auditorlik faoliyati juda murakkab faoliyat hisoblanib, ichki auditorga katta mas'uliyat yuklaydi. Bank faoliyatining hamma yo'nalishlarini bilish uchun yuqori malakaga ega bo'lish talab qilinadi. Auditor tekshiruvlarni xalqaro me'yor va andozalarga muvofiq tashkil qiladi, unga tekshirilayotgan obyektga aloqador bo'lgan har qanday hujjatlarni ko'rish imkoniyati berilishi lozim.

Umuman olganda, banklarda auditni tashkil etishning huquqiy asoslari quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida» gi Qonun
- O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risida» gi Qonun.
- O'zbekiston Respublikasi «Markaziy banki to'g'risida»gi qonun
- «Banklar va bank faoliyati to'g'risida »gi qonun
- «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquq'larini himoya qilish to'g'risida»gi qonun
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 y. 24 iyuldagi «Bank auditi tizimini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.04.2007 yildagi № PQ-615 sonli «Auditorlik tashkilotlarida faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ular ko'rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to'g'risida» qarori
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 198-sonli «Moliyaviy nazoratni kuchaytirish va xo'jalik faoliyatiga auditorlik moliyaviy nazoratni joriy etish to'g'risida»gi Qarori
- Markaziy bankning Tijorat banklarida ichki nazoratni tashkil qilish bo'yicha tavsiyalar 1998 y.4 iyul 404- raqam bilan tasdiqlangan.

- Markaziy bankning “O‘zbekiston Respublikasida banklarni audit qilish to‘g‘risida” 1998 yil 4 iyul 403 - son Nizomiga 1999 yil 18 sentyabridagi (o‘zgartirish va qo‘shimchalari bilan)
- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998 yil 9 noyabrdagi «Tijorat banklarida pul muomalasini tashkil qilish haqida»gi ko‘rsatma.

3. Bank xarajatlarini audit qilishning joriy holati tahlili.

Tijorat banklari daromadlari va xarajatlarini audit qilishda har bir balans moddalari shaxsiy hisobvaraqlar aylanmalari bilan solishtirib chiqishdan boshlanadi. Auditor bankka kelgach dastlab bank bosh buxgalteridan bankning kunlik balansni so‘raydi. Undagi qoldiqlarni birma-bir tekshirib chiqadi. Balans va uning moddalari shaxsiy hisobvaraqlar qoldiqlariga tengligi tekshirilgach, auditor dasturlar tengligini tekshirishni boshlaydi. Hamkorbank filialida IABS dasturi va RS_Bank dasturlari ishlatiladi. Har bir berilgan kredit ikki dasturda ham bir xil kiritilishi va ulardagi qoldiq doimo teng bo‘lishi lozim. Auditor har doim dastur bilan ish yuritadi. Uning ishchi dasturi taxminan quyidagicha bo‘ladi:

1-jadval.

Daromadlar auditi ishchi dasturi(misol tariqasida)⁷

№	Tekshiruv bosqichlari	Talabga javob beradimi?(+:-)
1	Shaxsiy hisobvaraqlar qoldig‘i bilan balans qoldig‘ini tekshirish	
2	Foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot bilan shaxsiy hisobvaraqlar qoldig‘ini mos kelishini tekshirish	
3	Daromadlarni tegishli hisobvaraqlarda aks ettirishni tekshirish	
4	Kelgusida kutilayotgan daromadni to‘g‘ri aks ettirilganligini tekshirish	

Daromadlar auditi amalga oshirilayotgan jarayonda auditor har bir daromad hisobvarag‘i qoldig‘ini to‘g‘ri va vaqtida aks ettirilganligini bilishi zarur. Audit

⁷Surkova M.A, Leshina E.A, Bagdanova N.A, RyabovaM.A “Аудит банков” o‘quv qo‘llanma . Ulyanovsk 2009-yil.

jarayoni bir oy muddatgacha cho`zilishi mumkin. Bu vaqt auditor ishchi dasturi va filial faoliyati kattaligiga qaraladi. Auditor har bir shaxsiy hisobvaraqlar qoldig`ini tekshirishga vaqt topolmaydi va shuning uchun tasodifiy tanlash ishlarini olib boradi.

Tanlash jarayoni odatda ma`lum muddat yoki ma`lum mijozlarni o`z ichiga oladi. Eng muhimi tanlanma tasodifiy bo`lishi. Auditor dasturda aks ettirilgan ketma-ketlikda o`z ishini olib boradi va tekshiruv natijasida o`z hisobotini shakllantiradi.

Dastlab auditor ishni O`zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 25.10.2004 yilda 1419-son bilan ro`yxatga olingan Nizomga asosan har bir daromad turini tekshirishni boshlaydi. Nizomning 2-ilovasida “Foyda va zararlar to`g`risida”gi jamlanma hisobotni har bir satri bo`yicha to`ldirilishiga e`tibor beradi. Dastlab auditor fozili daromadlarning to`g`ri aks ettirilganini tekshiradi.

▪ *Kreditlar bo`yicha foizli daromadlar.*

Bu satrda O`zbekiston Respublikasi Markaziy Banki va boshqa banklarga berilgan kreditlardan tashqari barcha turdagi kreditlar bo`yicha foizli daromadlarning umumiy summasi, kreditlar bo`yicha hisoblangan vositachilik haqi hisobga olingan holda aks ettirilishi lozim. Auditor ushbu summani hisoblashda RS_Bank va IABS dasturlaridagi:

- 41800 Hukumatga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo`yicha foizli daromadlar
- 41900 Budjet tashkilotlariga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo`yicha foizli daromadlar
- 42000 Jismoniy shaxslarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo`yicha foizli daromadlar
- 42100 Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo`yicha foizli daromadlar
- 42200 Davlat korxona, tashkilot va muassasalariga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo`yicha foizli daromadlar

- 42300 Nodavlat notijorat tashkilotlariga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar
- 42400 Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar
- 42500 Bank bo'lmagan moliyaviy muassasalarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar
- 42600 Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlariga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar
- 43100 Respublika korxonalariga berilgan uzoq muddatli investitsiya kreditlari bo'yicha foizli daromadlar
- 43600 Budjet tashkilotlariga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar
- 43700 Bank bo'lmagan moliyaviy muassasalarga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar
- 43900 Nodavlat notijorat tashkilotlariga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar
- 44100 Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar
- 44200 Hukumatga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar
- 44300 Jismoniy shaxslarga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar
- 44400 Davlat korxona, tashkilot va muassasalariga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar
- 44500 Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar
- 44600 Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlariga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar
- 44700 Sud jarayonidagi kreditlar bo'yicha foizli daromadlar

Hisobvaraqlar qoldiqlari va “Foyda va zararlar to`g`risida”gi hisobotning “Kreditlar bo`yicha foizli daromadlar” satrlari teng chiqishi kerak. Bordini bu tenglik bajarilmasa auditor sintetik hisobdan analitik hisobga o`tadi va har bir mijozning shaxsiy hisobvarag`i qoldig`ini hisoblab chiqadi. Bu satr va bu tur daromadlar bilan bog`liq asosiy kamchilik 2 turga bo`linadi.

1. Foizlarni hisoblash kunlarining mos kelmasligi. Buxgalter nazoratchi dasturlardagi tenglikni ta`minlashi zarur. Bordini ikki dasturda hisoblash kunlari farq qilsa, bu hisobvaraqlar bo`yicha jami qoldiq olingan vaqtda yaqqol ko`rinadi.
2. Foiz stavkasi bilan bog`liq xatolik, bu xatolik asosan foiz stavkalarini xato kiritilishi bilan bog`liq xatolikdir. Buning natijasida kreditlardan olinadigan foizli daromadlar ikki dasturda ikki xil summani tashkil etadi va auditor har bir shaxsiy hisobvaraqlarni tekshirishga majbur bo`ladi.

- *O`zbekiston Respublikasi Markaziy Banki va boshqa banklardagi hisobvaraqlar bo`yicha foizli daromadlar .*

Bu satrni tekshirishda auditordan banklararo hisob-kitoblarda muayyan bilimga ega bo`lish talab etiladi. Bu satrni tekshirishda auditor IABS dasturidagi

- 40200 O`zbekiston Respublikasi Markaziy Bankidagi hisobvaraqlar bo`yicha foizli daromadlar
- 40400 Boshqa banklardagi hisobvaraqlar bo`yicha foizli daromadlar
- 41400 O`zbekiston Respublikasi Markaziy Bankiga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo`yicha foizli daromadlar
- 41600 Boshqa banklarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo`yicha foizli daromadlar
- 44000 Boshqa banklarga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo`yicha foizli daromadlar

Hisobvaraqlar qoldiqlarni yig`indisi bilan “Foyda va zararlar to`g`risida”gi hisobotning “O`zbekiston Respublikasi Markaziy Banki va boshqa banklardagi hisobvaraqlar bo`yicha foizli daromadlar” satrlari summalari bir xil chiqishi lozim.

Bu tenglik bajarilmagan hollarda auditor har bir bankka berilgan har bir kredit turi bo'yicha qoldiq summolari yig'indisini hisoblab chiqishi lozim bo'ladi. Banklararo kreditlarni olish, berish ishlari bilan odatda bankning banklararo hisob-kitoblar bo'limi shug'ullanadi. Hamma bank muassasalarida ham bunday bo'lim yo'qligini hisobga olsak, filiallarda bu ishlarni filial boshqaruvchisi, bosh buxgalter bilan birga amalga oshiradi. Bu tur daromadlardagi xatoliklarga aynan shu operatsiyani bajargan bank xodimlari javobgar bo'ladilar.

- *Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli daromadlar*

Bu turdagi foizli daromadlarni tekshirish uchun auditoridan bir qancha sohalar, qimmatli qog'ozlar va ular bilan bog'liq operatsiyalarni bilishi, bu tur daromadlarning o'ziga xos jihatlarini, qaysi hisobvaraqda aks ettirilishini, ulardan olinadigan daromadni hisobotning qaysi satrida va qachon aks ettirish kerakligini bilishi talab etiladi. Bu satrda savdoga mo'ljallangan va savdoga mo'ljallanmagan qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli daromadlar hisobga olinadi. Bu satrni tekshirishda auditor IABS dasturidagi :

- 40600 Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli daromadlar
 - *Sotishga mo'ljallangan mavjud investitsiyalar bo'yicha foizli daromadlar*

Bu satrni tekshirishda auditor IABS dasturidagi:

- 40700 Sotishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha foizli daromadlar
- 40800 Sotib olingan veksellar bo'yicha foizli daromadlar
- 44800 So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha foizli daromadlar

Hisobvaraqlari qoldiqlari yig'indisi bilan "Foyda va zararlar to'g'risida"gi hisobotning "Sotishga mo'ljallangan mavjud investitsiyalar bo'yicha foizli daromadlar" satri summolari teng chiqishiga e'tiborini qaratishi lozim hisoblanadi. Bizga ma'lumki, mamlakatimizda veksellarni muomalasi bekor qilingan va bu satr barcha banklarda hozirgi kunga kelib hech qanday summani o'zida aks ettirmaydi.

- *REPO teskari bitimlar bo'yicha foizli daromadlar*

Bu satrda auditor REPO bitimlari bo'yicha sotib olingan qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisoblangan foizli daromad aks ettirilishiga e'tiborini qaratadi. Bu satr to'g'ri hisoblanganini tekshirish uchun auditor IABS dasturidagi :

- 45000 Qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan REPO bitimlari bo'yicha foizli daromadlar hisobvarag'i qoldig'i hamda yuqoridagi satr tengligini bajarilishini tekshiradi.
- *Moliyaviy ijara bo'yicha foizli daromadlar*

Bu satr tog'riligini tekshirish uchun auditor dasturdagi:

- 45100 lizing bo'yicha foizli daromadlar;
- 45101 boshqa banklarga berilgan lizing bo'yicha foizli daromadlar;
- 45103 jismoniy shaxslarga berilgan lizing bo'yicha foizli daromadlar;
- 45105 yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan lizing bo'yicha foizli daromadlar;
- 45107 davlat korxona, tashkilot va muassasalariga berilgan lizing bo'yicha foizli daromadlar;
- 45109 chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarga berilgan lizing bo'yicha foizli daromadlar;
- 45111 nodavlat notijorat tashkilotlariga berilgan lizing bo'yicha foizli daromadlar;
- 45113 xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan lizing bo'yicha foizli daromadlar;
- 45115 bank bo'lmagan moliyaviy muassasalarga berilgan lizing bo'yicha foizli daromadlar;
- 45117 mudati o'tgan lizing bo'yicha foizli daromadlar;
- 45119 shartlari qayta ko'rib chiqilgan lizing bo'yicha foizli daromadlar;
- 45121 sud jarayonidagi lizing bo'yicha foizli daromadlar.

Hisobvaraqlarning qoldiqlari yig'indisi va moliyaviy ijara bo'yicha foizli daromadlar satrini tengligini tekshirish kerak. Odatda lizing bo'yicha daromadlarni hisoblashdagi kamchliklar kreditlarni hisoblashdagi xatoliklar bilan o'xshash bo'ladi.

▪ *Boshqa foizli daromadlar*

Aktivlar bo'yicha hisoblangan yuqoridagi daromadlarga kiritilmagan barcha boshqa foizli daromadlar aynan shu satrda aks ettiriladi.

▪ *Jami foizli daromadlar*

Bu satr foizli daromadlarni jami miqdorini ko'rsatadi. Bu satrni hisoblash uchun yuqoridagi foizli daromad satrlarining hammasi qo'shib chiqiladi.

Foizli daromadlar tekshirib bo'lingach auditor foizli xarajatlarni tekshirishni boshlaydi. Tekshiruv oldidan auditor xarajatlar auditining maxsus dasturini ishlab chiqadi va shu dastur asosida ishini olib boradi. Bu dastur taxminan quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi:

2-jadval.

Xarajatlar auditining maxsus dasturi⁸

№	Tekshiruv bosqichlari	Talabga javob beradimi?(+:-)
1	Shaxsiy hisobvaraqlar qoldig'i bilan balans qoldig'ini tekshirish	
2	Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot bilan shaxsiy hisobvaraqlar qoldig'ini mos kelishini tekshirish	
3	Xarajatlarni tegishli hisobvaraqlarda aks ettirish Tekshirish	
4	Shaxsiy hisobvaraqlar qoldig'i bilan soliq hisobotlari mosligini tekshirish	
5	Kutilayotgan zararlarga tashkil qilingan rezervlarni to'g'riligini tekshirish	

Dastlab yuqoridagi kabi auditor balans hisobvaraqlari va shaxsiy hisobvaraqlar qoldig'ini tekshirib chiqadi. Ulardagi summalar mos kelgach, auditor Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot bilan shaxsiy hisobvaraqlar qoldiqlari

⁸ Surkova M.A, Leshina
Ulyanovsk 2009-yil.

E.A, Bagdanova N.A, Ryabova M.A "Audit bankov" o'quv qo'llanma .

mosligini tekshirib chiqadi. Bu tekshiruv foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotning quyidagi satrlari asosida olib boriladi.

- *Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlarga foizli xarajatlar*

Bu tur xarajatlarni tekshirish uchun auditor depozit hisobvaraqlari va ular bo'yicha foizlarni hisoblash va ularni foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotning tegishli satrida aks ettirilishini bilishi lozim. Auditor undan tashqari depozit shartlari, unga foizlarni hisoblash tartibi, depozit kapitalizatsiya qilinishi yoki qilinmasligini bilishi lozim. Auditor bu tur xarajatlarni tekshirishda 50100 hisobvaraqlarni qoldiqlari va "Foyda va zararlar to'g'risida"gi hisobotning quyidagi hisobvaraqlarining qoldiqlarini yig'indisini topishi lozim:

- 50101 Hukumatning budjetdan tashqari mablag'lari asosidagi talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;
- 50103 Respublika qaramog'idagi budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari asosidagi talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;
- 50104 Mahalliy budjet qaramog'idagi budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari asosida talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;
- 50105 Budjetdan tashqari fondlarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;
- 50106 Jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;
- 50107 Respublika yo'l fondining talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;
- 50108 Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarining talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;
- 50110 Jismoniy shaxslarning plastik kartochkalaridagi mablag'lari bo'yicha foizli xarajatlar;
- 50111 Davlat korxona, tashkilot va muassasalarining talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;

- 50114 Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;
- 50116 Nodavlat notijorat tashkilotlarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;
- 50118 Yakka tartibdagi tadbirkorlarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;
- 50121 Bank bo'lmagan moliyaviy muassasalarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;
- 50126 Boshqa mijozlarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar.

▪ *Jamg'arma depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar*

Auditor jamg'arma depozitlar bo'yicha foizli xarajatlarni tekshirish uchun dastrurdagi quyidagi hisobvaraqlarni tekshirishi lozim:

- 50601 Hukumatning budjetdan tashqari mablag'lari asosidagi jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;
- 50603 Respublika qaramog'idagi budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari asosidagi jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;
- 50604 Mahalliy budjet qaramog'idagi budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari asosidagi jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;
- 50605 Budjetdan tashqari fondlarning jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlari;
- 50606 Jismoniy shaxslarning jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlari;
- 50607 Respublika yo'l fondining jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlari;
- 50608 Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarining jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;
- 50611 Davlat korxona, tashkilot va muassasalarining jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;

- 50614 Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarning jamg`arma depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar;
- 50616 Nodavlat notijorat tashkilotlarining jamg`arma depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar;
- 50618 Yakka tartibdagi tadbirkorlarning jamg`arma depozitlari bo`yicha foizli xarajatlari;
- 50621 Bank bo`lmagan moliyaviy muassasalarning jamg`arma depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar;
- 50626 Boshqa mijjzlarning jamg`arma depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar.

Yuqoridagi hisobvaraqlar qoldiqlari va foyda va zararlar to`g`risidagi hisobotning jamg`arma depozitlar bo`yicha foizli xarajatlar summalari bir xil chiqishi lozim. Ular orasida farq bo`ladigan bo`lsa, auditor bu farq nimaga yuzaga kelganini topishi lozim. Xato kimningdir aybi bilan yuzaga kelsa, auditor aybdorni topishi va jazolashi lozim.

▪ *Muddatli depozitlar bo`yicha foizli xarajatlar*

Salmoq jihatidan tijorat banklarining eng ko`p foizli xarajatlari aynan shu tur foizli xarajatlar hisobiga to`g`ri keladi. Bunga asosiy sabab, muddatli depozitlarning bank uchun barqaror resurs ekanligi hisoblanadi. Bu xarajatlarning auditor diqqat bilan tekshirishi lozim. Ularning ma`lum muddatga qo`yilishi va ular bo`yicha shartlarning to`g`ri bajarishi juda muhim hisoblanadi. Auditor dastlab muddatli depozitlarga foiz to`lash, ularning foiz stavkalari, muddatlari va depozit hisobvarag`i ochilgan kunga e`tibor berishi zarur. Dasturdagi 51100 “Muddatli depozitlar bo`yicha foizli xarajatlar” satrini diqqat bilan tekshiruvdan o`tkazishi lozim. Auditor dasturdagi quyidagi hisobvaraqlar qoldiqlari va “Foyda va zararlar to`g`risida”gi hisobotning muddatli depozitlar bo`yicha foizli xarajatlar satri summalari bir xil chiqishiga e`tiborini qaratishi lozim:

- 51101 Hukumatning budjetdan tashqari mablag`lari asosidagi muddatli depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar;

- 51103 Respublika qaramog`idagi budjet tashilotlarining budjetdan tashqari mablag`lari asosidagi muddatli depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar;
- 51104 Mahalliy budjet qaramog`idagi budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag`lari asosidagi muddatli depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar;
- 51105 Budjetdan tashqari fondlarning muddatli depozitlari bo`yicha foizli xarajatlari;
- 51106 Jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari bo`yicha foizli xarajatlari;
- 51107 Respublika yo`l fondining muddatli depozitlari bo`yicha foizli xarajatlari;
- 51108 Xususiy korxonalar, xo`jalik shirkatlari va jamiyatlarining muddatli depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar;
- 51111 Davlat korxona, tashkilot va muassasalarining muddatli depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar;
- 51114 Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarning muddatli depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar;
- 51116 Nodavlat notijorat tashkilotlarining mudatli depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar;
- 51118 Yakka tartibdagi tadbirkorlarning muddatli depozitlari bo`yicha foizli xarajatlari;
- 51121 Bank bo`lmagan moliyaviy muassasalarning muddatli depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar;
- 51126 Boshqa mijjozlarning mudatli depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar.

- *Hukumatga tegishli hisobvaraqlar bo`yicha foizli xarajatlar*

Agar bank hukumatning maxsus dasturiga tushgan bo`lsa, bankda hukumatning maxsus hisobvaraqlari joylashadi va shu hisobvaraqlar bo`yicha bank olingan resurs uchun foizli xarajatlar qiladi. Auditor bu resurslarga foizli xarajatlarni to`g`ri hisoblanganini tekshiradi.

- *O`zbekiston Respublikasi Markaziy Bankiga to`lanishi lozim bo`lgan hisobvaraqlar bo`yicha foizli xarajatlar*

Bu tur xarajatlar uchun auditor 51600 hisobvaraqlarni tekshirishi lozim. Bu hisobvaraqlar:

- 51601 Markaziy bankning vakillik hisobvarag`i bo`yicha foizli xarajatlar;
- 51606 Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag`i bo`yicha foizli xarajatlar;
- 51611 Markaziy bankning depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar.

Bu hisobvaraqlarda bankning Markaziy bank bilan qilgan jami operatsiyalari natijasida qilingan jami xarajatlar hisobga olinadi.

Boshqa banklarga to`lanishi lozim bo`lgan hisobvaraqlar bo`yicha foizli xarajatlar

Har bir tijorat banki boshqa tijorat banklari bilan doimiy aloqada bo`ladi. ya`ni resurs oladi va aksincha resurs beradi. Mana shu resurslar uchun qilingan jami xarajatlar mana shu hisobvaraqlarda hisobga olinadi va aks ettiriladi. bu hisobvaraqlar quyidagilar:

- 52101 Boshqa banklarning vakillik hisobvarag`i bo`yicha foizli xarajatlar;
- 52106 Boshqa banklardagi hisobvaraqlar bo`yicha foizli xarajatlar;
- 52111 Boshqa banklarning depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar.
 - *Boshqa qarz mablag`lari bo`yicha foizli xarajatlar*

Bu hisobvaraqlarda:

- bankning tugallanmagan akseptlari bo`yicha foizli xarajatlar (52600);
- qisqa muddatli kreditlar bo`yicha foizli xarajatlar bo`yicha foizli xarajatlar (53100);
- uzoq muddatli kreditlar bo`yicha foizli xarajatlar (54100)

turdagi foizli xarajatlar hisobga olinadi.

- *Chiqarilgan qarz qimmatli qog`ozlari bo`yicha foizli xarajatlar*
 - *Depozit sertifikatlari bo`yicha foizli xarajatlar*

Depozit sertifikatlari bo`yicha foizli xarajatlar- bank tomonidan muomalaga chiqarilgan depozit sertifikatlari uchun to`lanadigan foizlardir. Auditor ularni tekshirayotganda dastlab depozit sertifikatlari soni, muddati, ular bo`yicha to`lanadigan foiz stavkasi, ularning qaysi hisobvaraqda yuritilishi kabi omillarni inobatga olishi lozim.

- Chiqarilgan obligatsiyalar bo'yicha foizli xarajatlar
- Chiqarilgan veksellar bo'yicha foizli xarajatlar
- Chiqarilgan boshqa qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli xarajatlar
 - *REPO bitimlari bo'yicha foizli xarajatlar*

Bu xarajatlar qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan REPO bitimlari bo'yicha foizli xarajatlarni o'z ichiga oladi. Bu xarajatlar 54300 hisobvaraqlarda hisobga olinadi.

Boshqa foizli xarajatlar

Bu xarajatlar yuqorida keltirilgan birorta xarajat turiga kirmaydigan xarajatlar hisoblanadi. Ular 54902- boshqa foizsiz xarajatlar va 54904 –bosh bank/filialdan olingan mablag'lar bo'yicha foizli xarajatlardan iborat.

Foizsiz daromadlarni tekshirish uchun auditor “Foyda va zararlar to'g'risida”gi hisobotning “*Xizmatlar va vositachilik uchun olingan daromadlar*” satrini tekshirishdan boshlaydi. Bu satrda bankning O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa banklarga ko'rsatilgan xizmatlar uchun, akkreditivlar va akseptlar bo'yicha, overdraft bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlardan vositachilik haqi va to'lovlar ko'rinishida hisoblangan daromadlar, kredit majburiyatlari bo'yicha, menejment bo'yicha, mahalliy va xorijiy to'lovlar bo'yicha, inkasso operatsiyalari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlardan daromadlar va vositachilik va xizmatlar uchun to'lovlar ko'rinishida boshqa daromadlar aks ettirilishi lozim.

“*Qaram xo'jalik jamiyatlari va qo'shma korxonalar foydasi*”- ushbu satr bo'yicha auditor qaram xo'jalik jamiyatlari va qo'shma korxonalar investitsiyalarining sotilishi yoki chiqib ketishi natijasida olingan foyda, shuningdek qaram xo'jalik jamiyatlari va qo'shma korxonalar sof foydasidagi bankning ulushi aks etirilishi lozim.

“*Savdo operatsiyalaridan olingan foyda*” bunda ma'lum turdagi aktivlarni sotish yoki boshqacha chiqib ketishi hisobiga olinadigan foyda hisobga olinadi.

“*Valyuta operatsiyalaridan olingan foyda*” valyutani sotish, sotib olish va valyuta bilan amalga oshiriladigan boshqa operatsiyalardan olinadigan foydani o'zida aks ettiradi. Bu satrda

- 45401 “SPOT” bitimi bo`yicha xorijiy valyutalardagi foyda;
- 45405 Hosilaviy instrumentlar bilan tuzilgan bitimlar bo`yicha xorijiy valyutalardan foyda;
- 45409 Valyuta transaksiyalari bo`yicha foyda.

Hisobvaraqlar qoldiqlari yig`indisi hisobga olinadi.

*“Dividendlar ko`rinishidagi daromadlar”*- ushbu satrda xususiy kapitalga qilingan investitsiya bo`yicha olingan dividendlar aks ettiriladi.

“Investitsiyalardan olingan foyda”- bu satr bankning qimmatli qog`ozlarga qilingan investitsiyalaridan olingan daromadlarni o`zida aks ettiradi. Quyidagi hisobvaraqlarning qoldiqlari bu satrni tashkil qilishi lozim:


- 45801 Obligatsiya va boshqa qarz vositalariga qilingan investitsiyalarni sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan foyda;
- 45803 Sotishga mo`ljallangan qimmatli qog`ozlarni sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan foyda;
- 45805 So`ndirish muddatigacha saqlanadigan qimmatli qog`ozlarni sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan foyda.

*“Sof pul moddolari bo`yicha foyda”*- ushbu satrda inflyatsiya ta`sirini hisobga olish uchun hisobot moddalarini qayta hisoblash natijasi aks ettiriladi.


“Boshqa operatsion daromadlar”- ushbu satrga yuqoridagi satrlarga kiritilmagan daromadlar kiritiladi. Hozirgi kunda mamlakatimiz tijorat banklarining ko`pchilik qismida aynan foizsiz daromadlarning ulushi deyarli foizli daromadlarning ulushiga teng. Bu banklarning asosiy faoliyat turi hisoblanadigan operatsiyalardan kam daromad olayotganligini anglatadi. Ushbu satr:

- 45901 Bankning asosiy vositalari ijarasidan olingan daromadlar;
- 45905 Bankning boshqa ko`chmas mulkka qilingan investitsiyalardan olingan daromadlar;
- 45909 Bankning asosiy vositalarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan foyda;
- 45913 Bankning boshqa xususiy mulklarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan daromadlar;

- 45921 Hisobdan chiqarilgan mablag`larining qaytarilishi;
- 45994 boshqa foizsiz daromadlar hisobvaraqlar qoldiqlarini o`zida aks ettiradi.



1-diagramma. ATB “Hamkorbank” xarajatlari tarkibining jami xarajatlardagi foizli ulushi.⁹



2-diagramma. ATB “Hamkorbank” xarajatlari tarkibi.¹⁰

⁹ www.hamkorbank.uz sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

¹⁰ www.hamkorbank.uz sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yuqoridagi diagrammalardagi ma'lumotlardan bankning jami operatsion xarajatlari jami xarajatlari tarkibida yil boshida 62,5 % , ya'ni 71621757 ming so'm bo'lgan va yil oxiriga kelib 61,93 %, ya'ni 94779523 ming so'mga teng bo'lgani bizga ma'lum. Joriy yilda jami xarajatlar tarkibida foizli xarajatlar 28,10 %, foizli xarajatlar esa 29,01 % ni tashkil etgan.

Foizsiz xarajatlarni tekshirishda auditor quyidagi hisobvaraqlar qoldiqlariga e'tiborini qaratadi.

- 55100 Vositachilik xarajatlari
- 55300 Xorijiy valyutadan ko`rilgan zarar
- 55600 Tijorat operatsiyalaridan ko`rilgan zarar
- 55700 Qaram xo`jalik jamiyatlariga, qo`shma korxonalarga va sho`ba xo`jalik jamiyatlariga qilingan investitsiyalardan ko`rilgan zararlar
- 55800 investitsiyalardan ko`rilgan zararlar
- 55900 Boshqa foizsiz xarajatlar

Tijorat banklarida eng katta salmoqqa ega bo'lgan xarajatlar operatsion xarajatlar hisoblanadi. Operatsion xarajatlar quyidagi hisobvaraqlarda hisobga olinadi:

- **56100 Bank xizmatchilarining ish haqi va ular uchun qilingan boshqa xarajatlar**
 - 56102 Ish haqi
 - 56106 Bank xizmatchilari uchun imtiyozlar
 - 56108 Asosiy rahbar xodimlarga mukofotlar
 - 56110 Tibbiy, stomatologik xizmatlar uchun va shifoxonada davolash xarajatlari
 - 56114 Ijtimoiy sug`urta bo`yicha badallar
 - 56118 Ijtimoiy himoya bo`yicha xarajatlar
 - 56122 Bandlik fondi va boshqa fondlar uchun badallar
 - 56195 Bank xizmatchilari uchun qilingan boshqa xarajatlar
- **56200 Ijara va ta`minot xarajatlari**
 - 56202 Ijara to`lovi
 - 56206 Suv to`lovi

- 56210 Elektr energiyasi va isitish tarmoqlari xarajatlari
- 56214 Ta`mirlash va ta`minot xarajatlari
- 56218 Qo`riqlash xizmati xarajatlari
- **56300 Xizmat safari va transport xarajatlari**
 - 56302 Xizmat safari xarajatlari
 - 56306 Xizmat safaridagi kunlik xarajatlar
 - 56310 Bank mulkini qo`riqlash bilan bog`liq xarajatlar
 - 56314 Yoqilg`i xarajatlari
- **56500 Reprezentatsiya va xayriya**
 - 56502 Reprezentatsiya va ko`ngilochar tadbirlar xarajatlari
 - 56506 A`zolik badallari
 - 56510 Xayr-ehson va xayriya xarajatlari
- **56600 Eskirish xarajatlari**
 - 56602 Bank binosi va boshqa imoratlarning eskirish summasi
 - 56606 Investitsiya qilingan ko`chmas mulkning eskirish summasi
 - 56610 Transport vositalarining eskirish summasi
 - 56614 Mebel va jihozlarning eskirish summasi
 - 56616 To`lov kartochkalari bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uskunalarning eskirish summasi
 - 56618 Nomoddiy aktivlarning eskirish summasi
 - 56622 Operatsion ijaraga berilgan asosiy vositalarning eskirish summasi
 - 56626 Ob`ektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi bo`yicha eskirish summasi
 - 56630 Ombordagi asosiy vositalarning eskirish summasi
- **56700 Sug`urta, soliq va boshqa xarajatlar**
 - 56702 Yuridik va auditorlik xizmati xarajatlari
 - 56706 Maslahatchilar xizmati uchun to`lov xarajatlari
 - 56710 Sug`urta xarajatlari
 - 56714 Soliq(Foyda solig`idan tashqari) va litsenziyalar

- 56718 Jarima va penya xarajatlari
- 56722 Sud jarayonidagi aktivni sotib olish bilan bog`liq bo`lgan xarajatlar
- 56795 Boshqa operatsion xarajatlar
- **56800 Ko`rilishi mumkin bo`lgan zararlarni baholash**
 - 56802 Kreditlar bo`yicha ko`rilishi mumkin bo`lgan zararlarni baholash
- **56900 Daromad solig`ini baholash**
 - 56902 Daromad solig`ini baholash

Banklar o`z operatsion xarajatlarini ularning bosh banki tomonidan bir yil uchun tasdiqlangan va xabar berilgan smeta assignovaniyalari doirasida amalga oshiradilar.

Bankning operatsion xarajatlari smetasi bo`yicha kreditlarni bank rahbari tasarruf etadi. Bank rahbari bank bo`yicha buyruq chiqarib, smeta assignovaniyalarini tasarruf etish huquqini o`z muoviniga ishonib topshirishga haqlidir. Respublika banki raisi ham buyruq chiqarib smeta bo`yicha assigniylarni tasarruf etish huquqini o`zining birinchi muoviniga berishi mumkin. Biroq, smeta bo`yicha assignovaniylarni tasarruf etish huquqini boshqa shahsga berib qo`yish bilan bank raisini uning smeta intizomi ahvoli uchun qonunda belgilangan shaxsiy javobgarlikdan ozod qilmaydi. Smeta assignovaniyalari, shu jumladan kelgusi davrlar xarajatlari hisobidan mablag` sarflash uchun hujjatda kreditlar tasarruf etuvchisining ijozat imzosi bo`lishi shart.

Bankning operatsion xarajatlari uchun ajratilgan smeta assignovaniyalari hisobot yilining 31 dekabrigacha amal qiladi. Tugagan yilda amalda qilingan barcha xarajatlar 31 dekabrgacha o`tkazilishi lozim.

Bankning operatsion xarajatlari hisobi banklar tomonidan balansda quyidagi tegishli hisobvaraqlar yuritiladi: "Ish haqi va xodimlar uchun boshqa xarajatlar", "Ijara va saqlash", "xizmat safari va transport xarajatlari", "Ma`muriy xarajatlar" va shu kabilar. Bu hisobvaraqlarga faqat hujjatlar bilan tasdiqlangan va amalda qilingan xarajatlar kiritiladi.

Kelgusi yillar smetalari hisobidan bankning operatsion xarajatlari uchun qilinadigan xarajatlar hisobi "Puli oldindan to`langan xarajatlar" hisobvarag`ida yuritiladi.

Bu hisobvaraqqa yil oxirida ta`tilga ketadigan xodimlarga to`langan ish haqi, xususan kelasi yilga taalluqli to`lovlar, kelasi yil uchun gazetaga obuna bo`lish xarajatlari, kelgusi yillar smetalari hisobidan o`rni qoplanishi kerak bo`lgan ijaraga olingan binolarni kapital ta`mirlash xarajatlari summasi va shu kabilar o`tkaziladi.

Tijorat banklari daromadlari va xarajatlari auditi bo`yicha tuziladigan auditor hisoboti har bir filialda o`tkazilgan auditorlik tekshiruvdan keyin aniqlangan kamchiliklar, yo`l qo`yilgan xatoliklar va ularni to`g`rilash bo`yicha ko`rsatmalarni o`z ichiga oladi. Audit tekshiruvi natijalarini maxfiy saqlash bank uchun juda muhim hisoblanadi. Tijorat banklari daromadlari va xarajatlari auditi bo`yicha tuziladigan auditorlik hisoboti jami auditorlik hisobotining bir qismi hisoblanadi. Unda daromadlar va xarajatlarni hisobga olish, hisobda yuritish, foizlarni hisoblash kabi satrlar mavjud bo`ladi. Auditorlik hisoboti uch qismdan iborat bo`ladi.

- Kirish qismi
- Tahliliy qism
- Xulosa qismi

Kirish qismida auditorlik tekshiruvlari qaysi sanalarda, bankning qaysi bo`limlarida, kimlar tomonidan o`tkazilganligi, balansning qaysi moddalari tekshirilganligi ko`rsatiladi.

Tahliliy qismda esa bankning daromadlari va xarajatlari miqdori, ularni hisobga olish va hisobda yuritishning o`ziga xos jihatlari, bankning daromadlari va xarajatlari to`g`ri hisoblanganligi, tegishli hisobvaraqqda aks ettirilganligi, xatoga yo`l qo`ygan mas`ul shaxslar, ularni to`g`rilash muddati, xatoliklar yuzasidan bankka keltirilgan zarar miqdori kabi ko`rsatkichlar aks ettiriladi.

Xulosa qismida bankning umumiy faoliyatiga baho beriladi va bankning faoliyati bo'yicha o'tgan yilga nisbatan erishilgan yutuqlar, kamchiliklar to'liq bayon etiladi. Xulosa faqatgina auditorlik qo'mitasi va u orqali bank Kengashiga taqdim etiladi.

3-jadval.

“A” bankida o'tkazilgan auditorlik tekshiruvi natijalari to'g'risida¹¹

Ko'rsatkichlar	IABS dasturi bo'yicha	Auditor hisobi bo'yicha	Farq	Izoh
Foizli daromadlar	898 560	898 560	0	
Foizli xarajatlar	548 505	547 495	-1 010	
Foizsiz daromadlar	462 750	462 750	0	
Foizsiz xarajatlar	150 426	150426	0	
Operatsion xarajatlar	360 495	360 496	1	
Soliqlar	78 523	78 523	0	
Ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi maxsus zaxira	7 900	7 900	0	

Jadvaldan ko'rinadiki, bankning foizli xarajatlarini hisoblanishida xatolik mavjud. Bu xatolik miqdori 1 011 ming so'mga teng bo'lgan. Ya'ni bosh hisobchi depozitlar uchun foizlar hisoblanishida va operatsion xarajatlarni hisoblashda xatolikka yo'l qo'yilganligini sezmagan. Auditor dasturni birma-bir ko'zdan kechiradi va xatoga yo'l qo'ygan bank xodimini topadi. Bizning jadvaldagi xatoga yo'l qo'ygan bank xodimi bankning omonat bo'limi nazoratchi buxgalteri bo'lib chiqdi. U mijozning 31 mln so'm omonatini dasturga kiritayotganda xatoga yo'l qo'ygan ekan. Bu bo'yicha dalolatnoma tuziladi va mijozga to'lanishi lozim bo'lgan 1 010 ming so'm to'lab berilishi lozim. Bank yordamchi buxgalteri

¹¹ “A” tijorat banki auditorlik tekshiruvlari asosida tayyorlandi.

tomonidan xodimlarning xizmat safari bo'yicha to'lanishi kerak bo'lgan 1 ming so'm mablag'i noto'g'ri hisoblanagan va buni bank xodimiga to'lashi zarur.

Bankda o'tkazilgan audit natijalari dalolatnomasi ikki nusxada tuziladi. Uning birinchi nusxasi filialda qoldirilsa, ikkinchi nusxasi bosh bankka olib boriladi. Bu nusxa bank Kengashiga taqdim etiladi. Bank Kengashi esa uni belgilangan tarzda ko'rib chiqadi va boshqaruvning tegishli departamentlaridan bu mauammoni hal qilishni talab qiladi. Bank departamenti bu talabni tegishli tarzda bajaradi va bajarilgan ishlar yuzasidan bank Kengashiga axborot beradi. Bu jarayon audit natijalari realizatsiyasi deb nomlanadi.

Bank auditida audit natijalari realizatsiyasi muhim ahamiyatga ega. Bank auditi natijalari realizatsiyasi bankda ishlamayotgan yoki xato ishlayotgan xodimlari topishda va ularga yordam berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Unga tegishli department orqali ta'sir o'tkaziladi va yo'l qo'yilgan xatoliklarni to'g'rilash uchun maxsus topshiriqlar beriladi.

Bank auditi shunisi bilan muhimki, auditor tomonidan aniqlangan xato va kamchiliklar to'g'rilash uchun bank Kengashiga taqdim etiladi. Bank kengashi esa topilgan xatoliklarni to'g'rilash uchun bank boshqaruviga ko'rsatmalar beradi. Bu jarayon bankda yaxshi ishlamayotganlarni jazolash, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatish, qilingan xatoliklarni qayta qilmaslikni o'rgatadi.

Xulosa

Tijorat banklari faoliyatiga real baho berish, aksiyadorlar va omonatchilar, kreditorlar va investorlarning bank faoliyati to'g'risida aniq, ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lishlarida audit tekshiruvlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Audit olib borish tartibi qonunlar, hukumat qarorlari va idoraviy yo'l-yo'riqlar bilan tartibga solib boriladi. Mijozning moliyaviy holatini yaxshilash, investorlar, kreditorlarni jalb etishga yordam beradi, moliya, soliq va boshqa sohalarda maslahat beradi. Audit xulosasi barcha jismoniy va yuridik shaxslar uchun, hokimiyat va sud idoralari uchun huquqiy hujjat hisoblanadi. Tijorat banklarining audit xulosalari matbuotda e'lon qilinishi lozim.

O'zbekistonda bank tizimi shakllanish davridayoq bank auditini xalqaro talablarga javob beradigan darajada tashkil etishga alohida e'tibor berildi. Hozirgi paytda tijorat banklari, avvalambor, Markaziy bank tomonidan diqqat bilan nazorat qilib borish obyekti sanaladiki, bu O'zbekiston Respublikasi "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi qonunda ham o'z ifodasini topdi. Qonunning 50-moddasida aytiladiki, Markaziy bank bank tizimi barqarorligini saqlab turish, omonatchilar va kreditorlarning manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash maqsadida banklar faoliyatini nazorat qiladi va tartibga solib boradi.

Shuningdek, u bank operatsiyalarini amalga oshirish, buxgalteriya hisobi va bank statistik hisobotini yuritish, yillik hisobotlar tuzish yuzasidan banklar uchun majburiy bo'lgan qoidalarni belgilaydi. Bu qoidalar quyidagilardan iborat:

- Banklarning hisoboti va boshqa hujjatlarini olish hamda tekshirish, ularning faoliyati, shu jumladan operatsiyalari to'g'risida axborot so'rash va olish;
- Olingan axborot yuzasidan izoh talab qilish;
- Banklar, ularning filiallari va bank bilan uzviy bog'langan yuridik shaxslarning faoliyatini tekshirish hamda tartibbuzarlarga nisbatan sanksiyalar qo'llash;
- Banklarning ichki auditi bo'yicha qo'yiladigan talablarni belgilash;

Bank nazoratining asosiy asosini banklarning o'zlari tomonidan tayyorlangan moliyaviy hisobot shakli yoki auditorlik firmalari tasdiqlagan ish

faoliyatining moliyaviy ahvoli va rentabelligi haqidagi axborotlar tashkil etadi. Ko'pgina xalqaro me'yoriy hujjatlarda bank aktivlari va passivlarini noto'g'ri baholash, ular faoliyatining moliyaviy natijalari haqqoniy baholanishi zarurligi ta'kidlanadi. Biroq eng mukammal xalqaro standartlar ham tijorat banklarining real moliyaviy ahvoli va moliyaviy hisobotlardagi ma'lumotlar bilan mos kelmasligi mumkin. 1996-yilga kelib mamlakatimiz bank auditini yangi pog'onaga olib chiqish ishlari amalga oshirildi. Bunga asosiy sabab, mamlakatimizga kirib kelayotgan chet el investitsiyalarining ko'payishi edi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Tijorat banklariga litsenziyalar berish va ular faoliyatini tartibga solish departamenti tarkibida "Auditni muvofiqlashtirish" bo'limi tashkil etildi. Daromadlar va xarajatlar auditining oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- Daromadlar va ularning tashkil topish manbalarini to'g'ri, aniq va asoslangan holda hisobda aks ettirish;
- Foizlar bo'yicha daromadlar va xarajatlar tahlili, boshqa daromadlar va xarajatlar, olingan daromadlarning aniqligi va oqilonaligi tahlili, jumladan, hisobraqamlardagi mablag'larni xorijiy valyutaga konventirlash natijalari;
- Xarajatlarni tegishli hisobvaraqlarda, vaqtida aks ettirish;
- Daromadlar va xarajatlarni hisobga olishdagi kamchiliklarni oldini olish, kamchiliklar yuzaga kelganda qayerdan yuzaga kelganini izohlab berish.

Bankning operatsion xarajatlari auditorning daqqat markazida bo'ladi. Yuqorida ko'rdikki, tijorat banklarida operatsion xarajatlar salmoq jihatidan eng yuqori o'rinda turadi. Operatsion xarajatlar doimo biror hujjat asosida amalga oshiriladi. Ularni kunlik hujjatlarga tikish asl nusxasiga asosan amalga oshirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 1995 yil 21 dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida" Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 25- aprelda qabul qilingan "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 26- mayda qabul qilingan "Auditorlik faoliyati to'g'risida" Qonuni (yangi tahriri).
4. "Respublikada bank auditi tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.07.1996 y. PF-1500-son Farmoni) .
5. "Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ular ko'rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 apreldagi PQ-615-sonli Qarori.
6. "Auditorlik tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 2 iyuldagi PQ-907-sonli Qarori.
7. "2011-2015 yillarda Respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida "gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1438-sonli Qarori .
8. Karimov I.A. "Bank tizimi ,pul muomalasi,kredit,investiyya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida"// Toshkent "O'zbekiston" Nashriyot-matbaa ijodiy uyi 2011 y.
9. Karimov I. A. 2014-yilning asosiy yakunlari va 2015-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi, 2015 yil 17 yanvar.
10. "O'zbekiston Respublikasida banklar auditorlik tekshiruvi to'g'risida" Nizom (Yangi tahrirda)(Adliya Vazirligida 04.11.2000 y. N 982 raqam bilan

ro'yxatga olingan, Markaziy bank tomonidan 20.06.2000 y. N 403 sonli qaror bilan tasdiqlangan.).

11. "Tijorat banklarinig ichki auditiga Markaziy bank tomonidan qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom (Adliya vazirligida 2000 yil 22 dekabrda 992-raqam bilan ro'yxatga olingan).

12. Ivanav A. A. "Внешний аудит как элемент банковского надзора. Бухгалтерия и банки" Moskva, 2000-y.

13. Muydinov. B.N. «Bank muassasalarida audit» Toshkent , 2004 y.

14. Navro'zova K . N. "Banklarda buxgalteriya hisobi va operastion texnika" o'quv qo'llanma. Toshkent, "Iqtisod- Moliya" 2010-y.

14. Norqobilov.S., Abdusalomova O. "Banklarda audit" Toshkent; "Ma'naviyat" 2005.

15. Qosimov X., Yugay L., Xoshimova A., Pardaev B., Abdunazarov B. "Auditorlik faoliyati bo'yicha uslubiy qo'llanmalar to'plami." -Toshkent, 2010.- 320 b.

16. Surkova M.A, Leshina E.A, Bagdanova N.A, Ryabova M.A "Аудит банков" o`quv qo`llanma . Ulyanovsk 2009-yil.

17. Sheshukova T.G. Аудит: теория и практика применения международных стандартов: Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика. 2005. – 179 b.

Internet Saytlari:

www.cbu.uz

www.auditor.uz

www.tfi.uz